

- O'g'lim biz har gal salom berganimizda pul beryaybmiz debdi. Shunda Maqsud o'zining noshudligini tushunib yetibdi. Qilgan biznesi aslida yaxshi emasligi tushunibdi... shu mahal uni oyisi uyg'otibdi
- Bolajonim turaqol, maktabga kech qolasan!

BADIIY TARJIMALARDA SO‘Z SEMANTIKASINING IFODALANISHI

Maripova Marjona

Andijon davlat chet tillari instituti

Filologiya va tillarni o‘qitish:

nemis tili yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Semasiologiya tilshunoslikning so‘z ma’nolarini tekshiruvchi bo‘limi bo‘lib, leksikologiyaga bevosita aloqadordir. Yuqorida aytib o‘tilganidek, so‘z ma’nolari sinxronik (tasviriy) va diaxronik (tarixiy) tomondan o‘rganiladi. So‘z ma’nolarida yuz bergan o‘zgarishlar tarixiy jihatdan tekshirilganda, til taraqqiyotining keyingi bosqichida paydo bo‘lgan yangi ma’nolar ham ko‘zda tutiladi. So‘zlarning leksik ma’nolari, kontekstda so‘z ma’nolarining o‘zgarib turishi, polisemiya, omonim, sinonim va antonim kabi ma’no kategoriyalari semasiologiyada o‘rganiladi.

Leksikologiyada semasiologiyaga aloqador yana bir soha borki bu soha onomasiologiya deb yuritiladi. Bu ikki soha o‘zaro bog‘liq. Ammo semasiologiya va onomasiologiya leksik birlikka bo‘lgan munosabatlari, tekshirish obyekti, metodi va vazifalari jihatidan o‘zaro farq qiladi. Semasiologiyada so‘z ma’nolari bilan borliqdagi narsa–hodisalar orasidagi bog‘lanish, bu bog‘lanishning xarakteri kabi masalalar o‘rganilsa, onomasiologiyada narsa-chiziq hodisalarning yakka nomlanish masalalari o‘rganiladi. Qisqacha aytganda, ma’no problemi semasiologiyada, ammo yakka xolda nomlanish muammosi onomasiologiyada tekshiriladi. Masalan, *Granatapfel* anor so‘zining meva daraxtlaridan biri turini va uning hosilini anglatishi, *sein Gesicht ist wie ein Granatapfel* uning yuzi anor tipidagi kontekstlarda ko‘chma ma’noda kelishi masalalari semasiologiyaning vazifasi hisoblansa, lekin biror joyda qizili bo‘lgan bolaga Anor Anorxon, Anorbek, Anorboy deb nom qo‘yish masalasi onomasiologiyaning vazifasi hisoblanadi, ya’ni so‘zning pragmatik ma’nosini tashkil qiladi. Onomasiologiyada ayrim

shaxs, predmet yoki ma'lum joyning nomlanishi alohida olingani uchun, unda ma'no doirasi cheklangandir.

Onomasiologiyaning o'rganish obyekti ham tarixiy va tasviriy nuqtai nazardan tekshiriladi. Tasviriy onomasiologiya dialektologik tekshirishlarda va lingvistik geografiyada kengroq qo'llaniladi. Masalan: O'zbekistonning dialektologik xaritasi tuzulguday bo'lsa, shartli ravishda o'g'iz gruppada dialektlarini dog', markaziy dialektni tog', qipchoq gruppada dialektlarini esa tov so'zi orqali ko'rsatish mumkin.

Keng ma'noda atoqli otlar — onomastika va uning asosiy tarmoqlari: antroponimika – (atoqli otlari), toponimika (geographische Namen geografik, Territorium in der Trockenheit quruqlikdagi territoriya – Erdteilen qit'a, Staaten mamlakat, Republik respublika, Land o'lka, Gebiet oblast, Bezirk rayon, Stadt shahar, Dorf qishloq) va Hydronymen gedronimika (Meer dengiz, See ko'l, Fluss daryo, Teich havza, anhor, Kanal kanal, Aryks ariq nomlari), shuningdek tabu, efemizm kabi til hodisalari leksikologiyaning onomasiologiya bobiga kiradi.

Semosiologiyada so'z ma'nolari har tomonlari tekshiriladi. Predmet yoki hodisa sezgi a'zolari yordami bilan kishi miyasida aks etadi va tilda ma'lum nutq tovushlari orqali ifodalanadi. Kishi, miyasida aks etgan moddiy borliq, predmet yoki uning xossasi, hodisa yoki voqea tushuncha deb ataladi. Tushunchaning tildagi ifodasi so'zdir. So'z bilan tushuncha orasida ma'lum munosabat bor. Bu munosabat kishilarini birgalashib mehnat qilishlari, birlikda hayot kechirishlari ijtimoiy turmush jarayonida yuzaga keladi. Shuning uchun so'z jamiyat a'zolari o'rtasida bir xilda tushuniladi.

Predmetlarning umumiy belgilari shu xil predmet haqida tasavvur hosil qilish uchun asos bo'ladi. Shuning uchun ham muayyan tushunchani ifodalovchi so'z ma'lum predmet haqidagi umumiy tasavvurni bildiradi va ayrim predmetlarda bo'lgan umumiy holatni o'z ichiga oladi. So'z muayyan predmet to'g'risida jamiyat a'zolariga ma'lum bo'lgan abstrakt va konkret tushunchani ifodalaydi. Masalan, hozirgi zamon o'zbek va nemis tilida daraxt (der Baum) co'zi umuman daraxt haqidagi tushunchani bildiradi. Shu bilan birga, ayni zamonda bu so'z mevali va mevasiz daraxtni, mevali daraxtlardan: o'rik- (Abrikose), olma-(Apfel), nok-(Birne), oli-(Pfirsich) behi-(Quitte) va boshqalarni; mevasiz daraxtlardan: tol, terak, qayrag'och, chinor (Weide, Eiche, Birken) va boshqalarni anglatadi. Konkret shaftoli Pfirsich haqida gapirilar ekan, shaftoli so'zi umumlashgan tushuncha bilan birga, chillaki shaftoli, tulki shaftoli kabi, shaftolining boshqa navlari to'g'risidagi tushunchalarni ham ifodalaydi. Shuningdek, uzum so'zi tok yoki uning mevasi haqidagi umumiy tushunchani anglatish bilan bir qatorda, Weintrauben uzumning: shivirg'oni, katta qo'rg'on, doroyi , shakaramgul, husayni, hasayni, kishmish, charos, sohibi, buvaki kabi

konkret navlarni xam bildiradi. Tilda bunday mevali daraxtlargina emas, balki boshqa xil o‘simliklar, hayvonlar, parrandalar, kishi va boshqa har qanday predmetlar to‘g‘risidagi umumiy va konkret tushunchalar ham va aniq ma’noli so‘zlar bilan ifodalanishi mumkin. O‘simliklar yovvoyi va madaniy o‘simlik kabi turlardan tashqari ekinlari, yem-xashak o‘simliklari va boshqa navlarga ham ajraladi. Don-ekinlari: Getreide bug‘doy va uning qizilmag‘iz, qorategin, muzrang, qayraqi, tuyatish, chorqirra, muslimka va boshqa turlari; sholi va uning bug‘doy sholi, devzira, qozonbuzar, qoraqiltiriq, arpa sholi kabi navlari bunga misol bo‘la oladi. Hayvonlar ham dastlab yovvoyi va uy-hayvonlari – (Haustiere und Wildtiere) nomi bilan 2 guruppaga ajraladi, yovvoyi hayvonlar sher yoki arslon, yo‘lbars, qoplon, tulki, qashqir, bo‘ri kabi turlarga: Haustieren uy hayvonlari esa: Kamelen tuyalar (bular o‘z ichida — bo‘ta, toyloq, atan, nor, bo‘g‘ra, ayri va boshqalarga); Pferd ot yoki yilqilar (bular yana – qulun, toy, g‘unan, dunan va boshqalarga); Schaff qo‘ylar (bular yana soliq, qo‘chqor, qo‘zi, ishshak, to‘qli, hisori va boshqalarga); Ziegen echkilarga (bular yana uloq, serka, taka va boshqalarga) bo‘linadi. Kishilar tabiat hodisalarini birlikdagi predmetlar va ular-ning xossalarini chuqur o‘rgangan va bilgan sayin ularning tabiat haqidagi tabiiy hodisalar to‘g‘risidagi tushunchalari tobora kengaya va konkretlasha boradi. Shu tariqa xilma-xil tushunchalar yuzaga keladi. Bularning hammasi tilda o‘z ifodasini topmay qolmaydi. Ishlab chiqarish, ekonomika, ijtimoiy munosabat va ideologiya sohasida yuz bergan o‘zgarishlar tilda yangi-yangi so‘zlarning tug‘ilishiga olib keladi, bu o‘zgarishlar ta’sirida ayrim so‘zlar yangi ma’no kasb etadi. Masalan: der Arbeiter ishchi, Bauer dehqon, Schüler o‘quvchi, Lehrer o‘qituvchi, Schule maktab kabi so‘zlar yangi ijtimoiy tuzum talabi bilan yangi ma’noni bildiradi boshladi: ishchi — badavlat shaxsning xususiy mulki va boyligini orttirish uchun emas, o‘zi va kishilik jamiyatining farovonligi uchun ishlovchi avangard tabaqa, dehqon–erni ishlovchi, xalq dasturxonining mo‘l-ko‘lligi uchun mehnat qiluvchi tabaqa; o‘quvchi–yangi bilim asoslarini egallovchi ma’lum sohada ixtisos qozanuvchi; o‘qituvchi–xalq maorifi, madaniyati ilm va fanni rivojlantiruvchi; maktab-yangi asosga qurilgan ta’lim - tarbiya o‘chog‘i kabi.

Tushuncha doirasining kengayishi, predmet va uning xossasi haqidagi tasavvuring konkretlashuvi orqasida so‘z ma’nolari orasida differensiatsiya vujudga keladi. Masalan: Prüfung - sinov, imtihon; Schule - maktab, Fachschule bilim-yurti, Institut, Hochschule - institut, Universität - universitet; Leiter- mudir, Direktor - direktor, Rektor - rektor, Prorektor - prorektor kabi. Xalq hayotida xo‘jalikning qaysi tarmog‘i yetakchi o‘rin tutsa, bu xalq tili leksikasida shu soha oid so‘z va terminlar ko‘p tabiiy.

O‘zbekistonning qishloq ho‘jaligida eng muhim va asosiy tarmoq paxtachilikdir. Shu tufayli o‘zbek tili leksikasida paxtachilikka oid ko‘pdan-ko‘p so‘z va terminlar bor: Saatgut chigit, Saatgut säen chigit ekish, Saatgut reinigen chigit tozalash, Baumwollpflanzen g‘o‘za, Baumwollpflanzen pflegen g‘o‘za parvarishi, durchschneiden yagana, Blumenkapsel shona, Kapsel ko‘rak, Baumwolle paxta va boshqalar. Jamiyat hayoti va uning turmush sharoitini o‘rganish va bilish so‘z va terminlarning paydo bo‘lishni aniqlashda, so‘zlarning ma’no xususiyatlarini belgilashda g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Predmet va uning jamiyat hayotidagi o‘rni, xizmat, jamiyat a’zolarining borliqdagi ayrim predmetlarga bo‘lgan munosabati shu predmetga qo‘yilgan nomda ham bir qadar o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun ham ma’lum tushunchaning ifodasi bo‘lgan so‘z jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi. Tushuncha so‘z ma’nolarining eng muhim va asosiy bazasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.E.Umarxo‘jaev. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. Andijon 2010. 154 b.
2. K.A.Lewkowskaja. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. M., 1968.
3. A.Iskos, A.Lenkova. Deutsche Lexikologie. Leningrad, 1975.
4. Степанова М.Д., Чернышева И.И. Лексикология современного немецкого языка. М., 1975, 295 с.